

MUHARRIR MAHMUD SA'DIY IJODINING ASOSIY
YO'NALISHLARI

Ibrohimova Aziza Tohirovna

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Bosma OAV jurnalistikasi yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Avvalo shuni aytish joizki, matn so'zi ham o'ziga yarasha ko'p ma'noli. Filologik ta'lilda uning ma'nosi uch xil izohlanadi². Birinchi izoh ancha umumiyligi: matn nutq jarayonining ongli suratda tashkil etilgan natijasi, muayyan mazmunini ifoda yetish uchun muayyan shaklga kiritilgan fikr. Ikkinchisi ta'rifda matn lingvistika ob'yekti, ko'p xollarda jumla doirasida cheklanadi deyilgan. Uchinchisi esa, qisqa hamda lo'nda: matn-nutqiy asar. Olimning fikrlaridan ko'rinish turibdiki, matn tushunchasining ma'nolari keng. Malakali muharrir matn bilan ishlay oladigan, ayni chog'da adabiy tanqidchi, ilmiy tadqiqotchi, malakali uslubshunos hamdir. Boisi tahrir ilmi bilimni talab qiluvchi ilmdir.

Kalit so'zlar: Tahrir, matn, asar, hissiyat.

*Matn tahriri xususida so'z yuritishdan avval matn tushunchasi nima ekanligiga aniqlik kiritish lozim. "Matn" (lot. *textus* - mato, tukima, birikma) ma'nosini anglatib, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, estetika, semiotika, madaniyatshunoslik xamda falsafada keng foydalilaniladi.*

Rus adabiyotshunosi Yu.M.Lotmanning ta'kidlashicha, matn "shubhasiz, gumanitar turkumga kiruvchi fanlarda eng kup kullaniladigan atamalardan biridir¹. Taniqli adabiyotshunos M.Xolbekov fikricha, "Dastlab, ushbu atama tilshunoslikda chukurrok o'rnashib oldi. Tilshunos uchun matn- bu uziga xos xususiyatlarga ega tabiiy tilning kullanilishidir.

Unga uyg'unlik, raxonlik va tugal ma'no kasb etish xosdir"². Darhaqiqat, tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda "Matn ko'p jihatli, murakkab tuzilishga ega bo'lgan qurilma, shuning uchun ham uni tavsiflashda, unga xos bo'lgan semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatik, kognitiv, nominativ xususiyatlarini e'tiborga olish talab qilinadi"³. Bugungi zamонавиyligi tilshunoslikda hatto matnshunoslik kabi yangi sohaning paydo bo'lgani ham bejiz emas. Unda matnning yaratilish tarixi, o'ziga xos xususiyatlari, matn yaratilish sanasini anik **belgilash, asarni nashr ettirish**

² Тохиров З. Адабий таҳрир. – Тошкент, Тафаккур бўйстони, 2012. – Б. 32.

¹ Потман Ю. М. О поэтах и поэзии: Анализ поэтического текста <https://www.twirpx.com/file/760848/> – с 24–25

² Холбеков М. Н. Структур адабиёт шунослик: Рисола. – Ташкент: Наврӯз. 2014. – Б. 110.

³ Курбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Тошкент, Университет. 2014. -Б. 12.

tamoyillarini aniqlash, matnning bir nechta varianti mavjud bo‘lganida – asosiy (dastlabki, namunaviy, muallif qo‘lyozmasiga, uning ko‘rsatmasiga binoan) matnni alohida ajratish kabi muammolar xal etiladi.

Adabiyotshunoslik esa matn tushunchasiga juda keng yondashadi. Unga badiiy asarning lisoniy va nutqiy ifodasi sifatida qaraydi. Badiiy matnda predmet va obraz (asar vokeligi) bilan bir katorda g‘oyaviy-ma’noviy (badiiy mazmun) aloxida o‘rin tutadi.

“Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek kat’iy mantiq, soddalik, tushunarilik, normativlik kabi qonuniyatlargacha to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta’sirchanlik birinchi planga ko‘tariladi. Ohangdor, jozibador birliklar ko‘p qo‘llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg‘un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqeа-xodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam kilgan bo‘ladi”¹. Olimning fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, badiiy matnnning asosiy xususiyati uning ta’siri va axamiyati – o‘quvchida ham shu kayfiyatni uyg‘otishdan iborat. “Matn” atamasi boshqa ilmiy adabiyotlarda ham turlicha talqin qilinadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida² matn so‘zining arabchadan o‘zlashganligi, eskirgan kitobiy so‘z ekanligi va aynan tekst so‘zi anglatgan ma’noga tengligiga ishora qilinadi.

Izohli lug‘atning 156-betida tekst so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi:

1.Yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilalar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.

2.Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo‘lgan she’r, so‘z.

3.Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi. Bu ta’rifda matnnning asosiy xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Faqat axborot-kommunikatsiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida matn (tekst) so‘zi anglatadigan ma’no yanada ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Kompyuterda terilgan matn formati Word, RTF matn, oddiy matn, formatlangan matn, gipermatn kabilalar ham iste’molda faollashdi. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy ob’yekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so‘z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnnning ham o‘z kategoriyasi va qonuniyatları borligi aytildi.

Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag‘ishlangan dissertation ishida bu haqda shunday yozadi: Matn so‘zining lug‘aviy ma’nosida birikish, bog‘lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog‘lovchilar

¹ Йўлдошев М. Бадиий матн лингвистикаси. – Тошкент: Фан, 2008. –Б.7.

² https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf – Б.557.

yordamida birikishini o'rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi¹. Matn birliklarining o'zaro bog'lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko'rinishi, olmosh turkumiga oid ba'zi so'zlar, gapning so'roq shakliga xos bo'lgan ko'rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o'rin tutadi. Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Nutq og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi.

Bizning asosiy o'rganish ob'yektimiz bo'lgan jurnalistika nuqtai nazardan qaraganda matn tushunchasi o'z ichiga nimalarni qamrab oladi? Matn konstruksiyasi, funksiyalari nimalardan iborat? Bu savollarga javob berish orqali biz mazkur faslda qo'yilgan muammoga ham yechim topamiz. Professor Z.Toxirovning fikricha, "Matn – muallifning yozuvda aks etgan o'z so'zi... Matn yaratish yaratuvchilik, ishlov berish va hisob-kitobli, har kimga ham nasib bo'lavermaydigan, mehnat turi sanaladi"². Jurnalistikaning asosiy materiali ham matn hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari, gazeta-jurnallar faoliyati bevosita matn bilan va uni yaratuvchi muallif hamda muharrir faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Muharrirning faoliyati muallif yaratgan matn ustida ter to'kish: tahrirlash, matnni publikaga, gazetaning formatiga moslashdan iborat. Muharrirlik noshirlik ishlarini bajarishda ham asosiy o'rin tutadi. Z.Toxirov "Adabiy tahrir" nomli monografiyasida "Ba'zi-ba'zida, muharrir o'zi, umuman, kerakmikan? - degan ovozlar eshitilib qoladi. Bunday fikr egalari, aftidan, bu ortiqcha kuch va mablag' sarfi keraksiz chiqim, deb o'ylasalar kerak. Ba'zilar bu savolga, muharrir kerak emas, deb javob qiladilar. Ular fikricha, go'yo ko'pchilik mualliflar muharrirga orqa qilib, xom-xatala asarlarni ham nashr uchun topshiraverar emishlar. Muharrining bo'lishi mualliflarning o'z asari ustida qunt bilan ishlamasligiga olib kelar emish. Ular muharrirga suyanib qolar, asarini chiqarilishinigina o'ylaydigan bo'lib qolar emish. Noshirlik sohasida ko'p yillar faoliyat ko'rsatib kelgan va kelayotganlar esa butunlay boshqacha fikrda bo'ladi. O'z tajribalariga tayanib, bunday mutaxassis xodimlar, ayniqsa, malakali muharrirlar, yo'q, tayyorgarligi mukammal bo'limgan maxsus adabiy yoki ixtisosiy yordamga muxtoj shaxslarning muallif bo'ladigan davri allaqachon o'tib ketdi deb qatiy ta'kidlaydilar. Ammo mantiqan mulohaza yuritsak, kimdir muallif asarining sifatiga baho berishi, qo'lyozma nashr uchun, yaroqlimi yo'qmi aniqlashi kerak-ku! Agar shunday bo'lmasa, kim har jihatdan - til va uslub, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy jihatdan maqbul bo'limgan qo'lyozmalar dunyo yuzini ko'rmasligiga kafolat beradi?"¹ deya fikr bildiradi. Muharrirlik kasbi o'ta mas'uliyatli kasb. Bu kasbning murakkabligi shundaki unda ish faoliyati, rivoji bevosita bir kishining o'zigagina bog'liq bo'lmaydi.

¹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвистикаси. – Тошкент: Фан, 2008. –Б.75.

² Тохиров З. Адабий тахрир. – Тошкент, Тафаккур бўstonи, 2012. – Б. 30.

¹ Тохиров З. Адабий тахрир. – Тошкент, Тафаккур бўstonи, 2012. – Б. 31.

Muharrir mualliflar matni bilan ishlaydi. Muharrir faoliyatining ko‘lami ham muallif matni bo‘yicha amalga oshirgan muharrirlik ishlari salmog‘ida ko‘rinadi. Muharrir kim ekani haqidagi savolga dissertatsiyamizning o‘rganish ob’yekti bo‘lgan ijodkor Mahmud Sa’diyning “Fikr qudrati” asaridagi quyidagi fikrlar bilan javob berishga urinib ko‘ramiz. “Tahir nima? Muharrir kim? dyeya savollar bilan murojaat qiladigan yoshlar ko‘p. Men ularga tahrir adabiyotimizda qadimdan bo‘lganligini, bu Navoiy zamondoshlarining asarlardan ma’lum... Alisher Navoiy asarlarning yuzaga kelishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib bergen. Ularni o‘qib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan, ya’ni muharrirning ishini bajargan... Tahrir san’atiga, ayniqsa, XIX asr rus klassiklari ham katta e’tibor bergenlariga guvoh bo‘lamiz. Rus adabiyoti daholari o‘z muharrirlarining fikrlarini g‘oyatda qadrlashgan. Masalan, Pushkin do‘sti Pletnyovga yozgan bir xatida “Yevgeniy Onegin” qo‘lyozmasini Jukovskiy, Gnedich, Delvig bilan birligida o‘qib chiqib, nimaiki kamchiligi bo‘lsa, yuzing-ko‘zing demay tanqid qilishlarini talab qilgan. Genial Nikolay Gogol esa, Pushkin vafot etganidan xabar topganida o‘zini qo‘yarga joy topolmay “Endi yozgan asarlarimni kimning hukmiga havola etaman!”, deb dod solgan, “Men har bir asarimni yozayotganimda ko‘z o‘ngimda u turardi. Endi mening yozganim nimayu, hayotimning ma’nisi nima!”, deb qattiq iztirob chekkan ekan... Bu gaplarni eslashdan murod nima? Demak tahrir san’ati adabiyotning gullab yashnashi uchun, matbuot fikrining xalq qalbidan joy olishi uchun g‘oyatda zarur san’atdir”¹. Ko‘rinib turibdiki, hatto daho ijodkorlar uchun ham muharrir xizmati g‘oyat muhim sanalgan. Pushkin, Gogol kabi ijodkorlar ham o‘zga odam nigohiga – muharrirga ehtiyoj sezganlar. Boisi har qanday badiiy, publisistik, ilmiy matn ommaga xavola etilishdan oldin muharrirning sinchkov nigohidan o‘tishi darkor. Badiiy asarning, ilmiy-adabiy tadqiqotning sayqal topishida, uni pishiq-puxta, bexato, barkamol holda kitobxonga yetkazishda muharrirning xizmati benihoya katta. Muharrirlik mehnatining zahmati va mas’uliyati juda ulkan. O‘tmishda hozirgi muharrirlar bajarayotgan vazifani xattotlar bajargan. Qadimda xattotlar faqat kitob ko‘chiruvchilargina emas, hozirgi tushunchadagi muharrirlik vazifasini ham o‘taganlar. O‘tmishda xattot, kotib, muharrir so‘zлari deyarli bir ma’noda qo‘llanilgan. Adabiyot tarixidan bilamizki, ulkan so‘z ustalari zargar xatotlar, mohir muharrirlar xizmatiga alohida hurmat, e’tibor hamda yuksak talabchanlik bilan qaraganlar, o‘zlarini hamisha ularning maslahat va madadiga muhtoj his etganlar. Ulug‘ Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” dostonida muharrirni “so‘z maxzanining xazonadori”², ya’ni so‘z xazinasini saqllovchi deb ataydi va muharrir mehnati mas’uliyati ustida to‘xtalib, “Muharrirki, tahriri tuz pisandidadur, agar bir bayt bitir, agar yuz. Agar xat surati noxushdur ma’ni xayli andin mushavvashdur”³, ya’ni muharrir tahriri tuzuk bo‘lsa, maqbul bo‘lur; ko‘p xato qilguvchi bo‘lsa, qo‘li falaj kasaliga uchrasin, deydi.

¹ Саъдий М. Фикр кудрати. – Тошкент, Таълим-медиа, 2019. –Б. 21.

² Навоий А. Маҳбуб ул-кулуб // https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari– Б.13.

³ Навоий А. Маҳбуб ул-кулуб // https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari– Б.13.

Buyuk yozuvchi L.N.Tolstoy fikricha, tajribali va vijdonan ishlaydigan muharrir o‘z mavqeiga ko‘ra ijodkorlar bilan kitobxonlar orasidagi doimiy vositachidir. Qaysidir ma’noda muharrir yozuvchiga o‘rgatadigan, uni tarbiyalaydigan odam. Bunday sharaflı vazifani ado etmoq uchun muharrirda alohida iqtidor, san’atni, so‘z qudratini nozik tushuna olish qobiliyati yuqori darajada bo‘lishi lozim.

Muharrirni muallifning yordamchisi sifatida ko‘rish ayrim tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rinib qoladi. Lekin muharrir muallifining yordamchisi deyish, bizningcha juda ham to‘g‘ri emas. Bunda gap so‘z ma’no ifodasida emas, balki faoliyat to‘g‘risida boradi. Agar muharrir yordamchi vazifasini bajaruvchi bo‘lsa, unda uning faoliyati qo‘lyozmani nashrga topshirgan kundan to‘xtagan bo‘lur edi. Vaholanki, muharrirlik vazifasiga keng ta’rif (ayniqsa vaqtli matbuotda) berilayotgan bugungi kunda ham muallif asarining matnini tahlil qilish, baholash hamda tuzatish uning asosiy majburiyati bo‘lib qolmoqda. Bu majburiyatni uddalash uchun muharrir matn haqidagi bilimlarini matn nazariyasini, matn tahlili va tahririning ilmiy asoslarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi talab etiladi.

Avvalo shuni aytish joizki, matn so‘zi ham o‘ziga yarasha ko‘p ma’noli. Filologik ta’limda uning ma’nosini uch xil izohlanadi². Birinchi izoh ancha umumiyligi: matn nutq jarayonining ongli suratda tashkil etilgan natijasi, muayyan mazmunini ifoda yetish uchun muayyan shaklga kiritilgan fikr. Ikkinci ta’rifda matn lingvistika ob’yekti, ko‘p xollarda jumla doirasida cheklanadi deyilgan. Uchinchisi esa, qisqa hamda lo‘nda: matn-nutqiy asar. Olimning fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, matn tushunchasining ma’nolari keng. Malakali muharrir matn bilan ishlay oladigan, ayni chog‘da adabiy tanqidchi, ilmiy tadqiqotchi, malakali uslubshunos hamdir. Boisi tahrir ilmi bilimni talab qiluvchi ilmdir. Tahrir (arabcha — xarrara: qutqarmoq, ozod qilmoq ma’no ifodasini beradi)- faoliyat turi madaniy-ijtimoiy ishlar va adabiy-ijodiy amaliyot sohasi sifatida hozirgi zamon noshirlik ishi va publisistikada keng tarqalgan. Tahrir deganda ifodani, qoidani, qarorni, majburiyatlarini, aniqlashtirish, umuman turli hujjatlarni tayyorlash tushuniladi. Masalan: «qaror matnini tahrir qilish kerak», «farmonni qabul qilish mumkin, lekin uni diqqat bilan tahrir qilish talab etiladi», «loyiha sifatida qabul qilsa bo‘ladi, lekin ayrim bandlari tahrir talab» iboralari odatiy bo‘lib qolgan va doimiy tarzda ishlatiladi. Nashr sohasidagi «tahrir» tushunchasining turlicha talqini mavjud. Tahrir ishi deganda, avvalo, ijtimoiy-adabiy va mafkuraviy faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat nashriyot, matbuot, radioeshittirish va teleko‘rsatuv organlari bilan bog‘liqdir. Shu ma’noda (ayniqsa kitobat, matbaa ishini nazarda tutganda) tahrir ishi o‘ziga xos boy tarixga va an’anaga ega. Ma’lumki, bugungi kundagi tahrir ishining tarixi yozuvning paydo bo‘lishi va kitobat bilan chambarchas bog‘liq. Yozuv va kitobat tarixi, bu - madaniyat tarixining tarkibiy qismlaridan biri. Ommaviy kommunikatsiyaning boshqa vositalari, xatto, eng ilg‘orlaridan televide niye ham

² Тохиров З. Адабий тахрир. – Тошкент, Тафаккур бўstonи, 2012. – Б. 32.

madaniyatni rivojlantirishdagi qo'shimcha vositadir. Tahrir ishi adabiy ijodiy ish, muharrir mehnati adabiy mehnat¹. Muharrir mehnati g'oyat murakkab. Matn tahlilining asosiy shartlariga quyidagilar kiradi:

- mavzuning tanlanishi va talqin etilishi;
- matn mazmunini baholash;
- matnning ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy-siyosiy, adabiy-uslubiy jihatlardan tekshirish;
- matn qismlari orasidgi mantiqiy izchillikka e'tibor qilish;
- matn strukturasidagi uslubi va grammatik xatoliklarni aniqlash va tuzatish.

Muharrir matn tahlilida adabiy va ilmiy tanqid, ma'naviy-axloqiy, lisoniy-uslubiy maromlarga, manabshunoslik, matnshunoslik va uslubiyat asoslariga tayanadi. Olimlar tomonidan matn tahriri va tahlilida e'tiborga olinishi zarur bo'lgan lisoniy va nolisoniy omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatiladi:

- Mavzu va voqelik sohasi
- Muallifning munosabati
- Ijtimoiy aloqa sohasi va sharoiti
- Matn yaratilgan davr va vaziyat
- Muallifning shaxsi, mavqeい
- Muallif uslubining o'ziga xosligi
- Matnning janriy xususiyatlari
- Nutq turlari va shakllarining ta'siri
- Umumxalq tili unsurlari
- Adabiy til imkoniyatlari
- Matn mazmuni tarkibi
- Matn kompozisiyasidagi nutqiy-uslubiy priyomlar¹.

Matn mantiqiy jihatdan ayniyat, ziddiyat, yetarli asos, istisno kabi qonunlarga tayanadi. Ayniyat qonuni matnda fikr ifodasining aqlga muvofiqligini belgilasa, ziddiyat qonuni fikr ifodasining tartibli va izchil bo'lishini taqozo etuvchi mezondir. Istisno qonuni esa ikki zid tasdiqdan birini tanlash talab etilganda amal qilinuvchi qonuniyatdir. Yetarli asos fikrning ishonarli, isbotli bo'lishini talab etadi. Bularning bari matn tahriri va talqinining mantiqiy asoslari hisoblanadi.

Noshirlik ishida etakchi kasb muharrirlik sanaladi. Muharrir muallifining birinchi yordamchisi, asarni birinchi bo'lib o'quvchi, taqrizchi, tanqidchisi. Muharrir asarning nashr yo'lini belgilaydi, nashrni yo'naltiradi, ko'p jihatdan uning taqdirini hal etadi. Nashr jarayonida ishtirok etuvchi boshqa bo'linmalarning mutaxassislari - texnik muharrir, musahhih, badiiy muharrir, bugungi kundagi dizayner - qaysidir darajada

¹ Тохиров З. Адабий таҳрир. – Тошкент, Тафаккур бўстони, 2012. – Б. 45.

¹ Тошалиев И. Адабий таҳрир асослари. – Тошкент. Университет, 2001. – Б.8.

uning mo‘ljallaganlarini amalga oshiradilar. Nashrdan chiqqan asar g‘oyaviy-siyosiy, ilmiy, ma’rifiy mazmuniga ko‘ra auditoriyani to‘liq qanoatlantirishida muharrir mas’uliyati yuksakdir, bu boradagi barcha mas’uliyat uning zimmasiga tushadi. O‘z faoliyati mobaynida muharrir milliy mafkura tamoyillariga amal qilishi lozim, adabiy asar turlaridan qay birining nashri uchun mas’ul bo‘lsa, shu asar umumxalq manfaatlar aks ettirishi, milliy mustaqillik g‘oyalari, kuchli qonunchilik davlatidan fuqarolik jamiyatiga o‘tish tamoyillari, davlat yuritayotgan oqilona xalqparvar siyosatga muvofiq bo‘lishligini ta’minlashi talab etiladi. Nashr mahsulotlarining sifatli bo‘lishi uchun tinmay kurashish, har bir asar (kitob, broshyura va b.) mazmun mohiyati, maqsadi, qaysi auditoriyaga mo‘ljallanganligiga ko‘ra o‘z vazifasini to‘la-to‘kis bajara oladigan bo‘lishi lozim. Nashriyotlar va tahririyatlardagi asosiy mutaxassis, bu - muharrir. Adabiy asar dunyo yuzini ko‘rishida nimaiki qilish lozim bo‘lsa, barchasida muharrirning qaysidir darajada ishtiroki bo‘ladi. Aytaylik, asar nashrdan chiqdi. Bu muharrirning ishi tugadi, degani emas. Hozirgi zamon noshirligi muharrirning vazifasi doirasini sezilarli kengaytirishni taqazo etadi. U kitob do‘konlarida, kutubxonalarda bo‘lishi, noshirlilik ishiga aloqador anjumanlarda faol ishtirok etishi, kitob savdosi bo‘yicha tadbirlarda, ko‘rgazmalarda qatnashishi, kitobxonlaring kitoblarga bergen baholari, fikrlarini o‘rganishi, xullas, bir so‘z bilan aytganda, marketing bilan ham shug‘ullanishi kerak. Bularidan tashqari, muharrir kitobshunoslikdan ham yaxshi xabardor bo‘lishi talab etiladi. Bu unga navbatdagi kitobni nashrga tayyorlashda asqotadi. Zero, keyingi kitob oldingisidan, albatta qaysidir jihatlari bilan yaxshi bo‘lishi lozim. Buning uchun muntazam, har kuni, butun faoliyat davomida izlanish, o‘rganish va tadqiq etish kerak bo‘ladi. Muharrirning qiziqarli, mazmunga boy, kamdan-kam uchraydigan serqirra faoliyati, boshqa har qanday faoliyatdan farqli o‘laroq, hamisha siyosiy jarayondan, fan va texnika, madaniyatning eng yangi yutuqlaridan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishni, muntazam ravishda jamoatchilik fikrini o‘rganishni, noshirlik sohasidagi ilg‘or tajriba va texnologiyalar bilan tanishib borishni, o‘zida sohaviy innovation usullarni amalga tadbiq eta bilish malakasini hosil qilishni dolzarb masala qilib qo‘yadi. Qo‘lyozmaning birinchi o‘quvchisi sifatida muharrir muallifga o‘z asarini chuqurroq idrok etish, chetdan ko‘rish to‘laroq his etishda ko‘makdosh bo‘ladi. Har bir muallif, agar, u tom ma’noda ijodchi bo‘lsa, o‘z asari uchun begona ko‘z qanchalar kerakli ekanini yaxshi anglaydi va qabul qiladi. Muallif uchun muharrir shunday o‘quvchiki, u boshqalardan ko‘ra, tiyrak va ziyraklik bilan asarni o‘qiydi. Kitobxon uchun esa muharrir - uning vakili, uning manfaatlarini ko‘zlovchi. Matnni o‘qiganda, asar auditoriya tomonidan qanday qabul qilinadi, baholanadi, shularni oldindan sezadi. Bugunga kelib tahrir ishiga murakkab texnika jadal tadbiq etilmoqda. O‘qiydigan qurilmalar, displaylar, shaxsiy kompyuterlar, noshirlik tizimining qurilmalari, o‘lchami turlichay bo‘lgan ekranlar, unga bir yo‘la kiritiladigan raqamlar, belgilardan matnni tuzatishdagi barcha yumishlarni bajarishda

foydalish imkoni mavjud. Texnika yordamida belgilarni almashtirish, qo'shimcha qism kiritish, satrlarni surish, bir joydan boshqa joyga o'tkazish, xatboshini tiklash, yo'qotish va h.k larni amalga oshirish mumkin. Nashr jarayoniga yangi texnikani joriy etish matn tashqi ko'rinishi - shaklini andozaviylashtirishga olib keladi, muharrirning uni qayta-qayta qo'lga olishdan ozod qiladi. To'g'ridan-to'g'ri «oq»qa o'tishni talab etadi. Kompyuterda ishslash matn yaratish ishidagi texnikaviy jarayonni osonlashtiribgina qolmaydi, balki u muharrirning fikrlashini uyg'unlashtiradi, kasbiy malakani takomillashtirishga yordam beradi.

Biroq muharrir nashr jarayoniga tadbiq etilgan texnikaviy vositalar imkoniyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Shuni yaxshi bilish kerakki, texnika muharrirning ishini osonlashtiradi, lekin, zinhor, uning o'rmini bosa olmaydi, chunki u ijodiy vazifalarni bajarishga qodir emas. Tabiiyki, muharrir matn ustida ishslashning butun mobaynida, nihoyatda faol, hushyor, diqqat-e'tiborini bir yerga jamlagan bo'lishi kerak. U matnni qanday idrok etishligini nazorat qila olishi, muallif mulohazasidagi o'ziga xoslikni baholay bilishi kerak. Bu muharrirga o'zi tutadigan yo'l (strategiya)ni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, tuzatish jarayonida. Tajribali muharrirlar tahrir ishining eng qiyin joyi matnni o'zgartirishni amalga oshirish, deb hisoblaydilar. Chunki, u matnda yot unsurdek bo'lib qolmasligi kerak. Kiritmalar begonaligi sezilmasligi, muallif matnining uzvlari bo'lib qolishi kerak. Muharrirning har bir qaydi qo'lyozma kamchiligining ta'kidigina emas, balki aniq tavsiya vazifasini ham o'tashi lozim. Bu muharrir qaydlari muallifga taqdim etilishdagina emas, balki kelgusida ishlarni amalga oshirish dasturi sifatida ham muhimdir. Matnni faol idroklash, fikrlar aniqligi muharrir faoliyati va xatti-harakatidagi zaruriy jihatlar hisoblanadi.

M.Yo'ldoshev matnlar tipologiyasiga to'xtalar ekan, axborotni uzatish vositasi (kanali) tildir, shunga ko'ra matnning og'zaki va yozma shakllarini farqlash lozim, deb hisoblaydi. Muallif fikricha, kommunikatsiya jarayonida berilayotgan axborotning hajmi ham matn tipologiyasiga asos qilib olinishi lozim va shu asosda: 1) minimal (yoki minimatn) va 2) maksimal (yoki maksimatn)ni belgilash mumkin. M.Yo'ldoshev matn tipologiyasida funksional uslublardan kelib chiqish lozim, deb biladi va quyidagi xulosaga keladi: —Ana shunga ko'ra matnlarni quyidagicha tipologik tasnif qilish maqsadga muvofiq:

- 1) spontan – so'zlashuv matni (oldindan tayyorgarliksiz amalga oshirilgan og'zaki suhbat);
- 2) rasmiy hujjat matni (qonun, farmon, qaror, buyruq, ma'lumotnoma, tarjimai hol kabi);
- 3) ilmiy matn (monografiya, dissertatsiya, ilmiy maqola, darslik, o'quv qo'llanmasi, tezis, ma'ruza kabi);
- 4) publisistik matn (ijtimoiy-siyosiy mavzudagi maqolalar, ocherk, gazeta

materiallari kabi);

5) badiiy matn (roman, hikoya, she'r, doston, pyesa kabi)

Og'zaki matnlar monolog, dialog va polilog turlariga ajratiladi. Monolog – bir muallif tomonidan bayon etiladigan og'zaki matn turi. Monologlar asosan og'zaki matn turiga kirib, nutq o'stirish jarayonida yetakchi o'ringa ega. Dialoglar, ma'lumki, bir shaxsning nutqiy hosilasi bo'lmashdan, balki ikki shaxsning nutqiy hosilasi hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida dialogik va monologik nutqlarning matn nuqtai nazaridan faqat strukturaviy-formal ko'rsatkichlari o'rganilgan. Hozirgacha bo'lган lingvistik adabiyotlarda monolog va dialoglarning semantik-pragmatik xususiyatlariga oid tadqiqotlar yetarli emas. Biz matnlar tipologiyasida hozirgi davr tilshunosligida mavjud nuqtai nazarlarni sintez qilgan holda ish tutib, og'zaki matnning quyidagi tiplarini ajratamiz: Polilog matnlar. Polilog matnlar mazmuni nutqiy vaziyat va so'zlovchining maqsadiga ko'ra turli mavzularda bo'lishi mumkin. Ko'p nutqlilikda qatnashayotgan shaxslarning nutqi bir mavzu atrofida, ammo turli uslubda yuzaga chiqadi. Bunda muloqot jarayonida ikkidan ortiq shaxs ishtirok etadi. Muloqot jarayonida boshqa shaxslar ham o'z e'tirozlari bilan qatnashadi. Matnning mazmuni turli qarama-qarshi mulohazalar, replikalarga javob tarzida rivojlanib, to'lishib boradi. Folklor matnlari. Folklor asarlari ham mohiyatan og'zaki, ovozli nutqdir. U og'zaki ijro etiladi. Bu jihatdan og'zaki nutq tizimiga kiradi. Folklor matnlari yuqoridagi og'zaki matnlardan farq qiladi. Ular og'zaki ravishda yod olinib, har bir jamiyat a'zosi tomonidan amalga oshirilish imkoniyatiga ega emas. Og'zaki matnlarning yana bir turi ovoza yoki mish-mishlardir. Ularning yashovchanligi bir-ikki kun yoxud bir haftagacha davom etishi mumkin. Ovoza yoki mish-mishlar og'izdan-og'izga ko'chib, ular ham muayyan ijtimoiy buyurtmani bajaradi. Unda ham ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifodalovchi (ijobi yoki salbiy ottenkada) axborot yoki ma'lumotlar to'plangan bo'ladi. Ovozalar yoki mish-mishlar asosidagi matnlarning lingvopsixologik tahlilida ular demografiyaning eng ilg'or qatlami bo'lган xotin-qizlar orasida ko'p uchrashi va ular o'rtasida yashovchanligi ham kuzatiladi. Yozma matnlar. Yozma matnlar, asosan, qo'lyozma matnlar tilshunos Yu.V.Rodjestvenskiyning tasnifiga asosan to'rt xildir. Ular epigrafik, sfragistik, numizmatik, paleografik matnlardir.

1. Epigrafik matnlar asosan —epigraf so'zi ma'nosidan kelib chiqib, turli-tuman ko'rsatkich – yozma matnlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasining —Davlat tili haqidagi Qonunining 22-moddasi talablariga ko'ra, epigrafik matnlar faqat bir tilda – davlat tilida yozilishi zarur.

2. Sfragistik matnlar asosan muhr va burchakli shtamplarga bitilgan matnlar hisoblanadi. Ma'lumki, muhrlar bir necha asr muqaddam paydo bo'lган, uning o'ziga xos tarixi mavjud.

3. Numizmatik matnlarga pullarga bitilgan, pullarning qiymatini ko'rsatuvchi

so‘zlar kiradi. Bir so‘m, uch dollar kabilar. Numizmatika so‘zining o‘zi ham tanga demakdir. Tilshunoslik fani tangalarda bosilgan matnlarning lisoniy xususiyatlari bilan qiziqadi. Numizmatik matnlar sirasiga pullar va ularning qiymati ifodalaridan tashqari, orden va medallarning nomlari, ulardagи matnlarning rasmiy lashtirilishlari ham kiradi. Masalan: “Oltin yulduz” medali” 1994 yil 5 mayda ta’sis etilgan; “Mustaqillik” ordeni 1994 yil 5 mayda ta’sis etilgan; “Amir Temur” ordeni 1996 yil 16 aprelda ta’sis etilgan. Numizmatik matnlarning asosiy xususiyatlaridan yana biri – yaratilgan matnlar faqat shu matn yaratilgan vaqtida bir marta yoziladi va uni jamiyat a’zolari bir xilda tushunadi. Ushbu matnlarga jamiyat a’zolari tomonidan har xil o‘zgarishlar kiritish, qo‘sishchalar bilan to‘ldirish kabilar amalga oshirilmaydi. Shunga ko‘ra, bu matn turidagi yozuvlar bir martalik yozuvlar deb yuritiladi. Numizmatik matnlar faqat sinxron planda emas, balki ularning tarixi bilan bog‘liq diaxron planda ham o‘rganilishi mumkin. Numizmatika matnlari to‘g‘ri, qisqa, lo‘nda xabarlar tashiydi. Ammo mana shu qisqa xabarlarning ham o‘z tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi, madaniyat tarixi mavjud bo‘lib, bular tilshunoslik uchun ham g‘oyat qimmatlidir. Paleografik matnlar qo‘lyozma matnlarning asosiy turi bo‘lib, jamiyatning madaniy normativlarini (me‘yorlarini) belgilaydi. Paleografik matnlar maktub, hujjat va ijodiy asarlarni qamrab oladi. Mana shulardan biri maktub (xat)dir. Maktub va xat so‘zlari mazmunan yaqin tushunchalarni ifodalasa-da, ular orasida ma’lum ma’noviy-uslubiy farq bor. Maktub ko‘proq oilaviy, do‘stona yozishmalar, intim ma’noli matnlarni ifodalaydi. Maktubda yaqinlik, do‘stlik, sevgi-muhabbatga oid mazmun-xabarlar aks etadi. Xat ba‘zi hollarda maktub ma’nosini ham ifodalab, unga sinonim bo‘la oladi. Ammo xatda ma’lum darajada rasmiylik, xolisonlik ma’nosini mavjud. Masalan: “Ey, meni suyuklu Kamolim! Bu sango eng so‘nggi yozg‘on maktubim. Mundin so‘nggi maktubni sango endi narigi dunyodin yozurmen. Sening tarafingdan kelg‘on qora xabarlar, ishq-muhabbat balosi meni jonimdan to‘yg‘uzdi. Bu yorug‘ dunyoda turmoqdan qorong‘u go‘rga kirmoqni avlo bildim. Bu maktubim orqasidan eshiging ol(di)dan suyukli Maryamingni tovutin o‘tganin ko‘rursan (Abdulla Avloniy. —Biz va Siz).

Matnda ifodalangan axborotni uzatish jarayoni ikki xil tarzda kechadi: 1) shaxslararo muloqot jarayoni; 2) ommaviy axborot vositalari orqali matnni uzatish. Individuaul resipiyyentlarga axborotni yetkazish jarayoni turlari ikki guruhga bo‘linadi. Birinchisi guruhi, ikkinchisi yakkama-yakka tarzdagi suhbat yoki muloqot hisoblanadi. Birinchi guruhga o‘quv xonasidagi talabalar hamda professor-o‘qituvchi o‘rtasidagi axborot almashish jarayoni kiradi. Bunda axborot uzatuvchi bilan axborot qabul qiluvchi o‘rtasidagi muloqot shakli —savol-javob, —matn-tahlil kabi usullarda turlicha bo‘lishi mumkin. Yakkama-yakka suhbatlarda ham verbal vosita jarayoni sifatida matn xizmat qiladi. Yakkama-yakka aloqa-aratashuv jarayonini tashkil etishda ham matn yetakchi verbal vosita hisoblanadi. Matnning verbal vosita sifatida qatnashishi uchun ularning manbaini barcha turdagи (og‘zaki va yozma) matnlar tashkil

etadi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Тохиров З. Адабий тахрир. – Тошкент, Тафаккур бўстони, 2012. – Б. 32.
2. Лотман Ю.М. О поэтах и поэзии: Анализ поэтического текста <https://www.twirpx.com/file/760848/> -с 24-25
3. Холбеков М.Н. Структур адабиётшунослик: Рисола. —Тошкент: Наврӯз. 2014.- Б.110.